

XARAKTER YARATISHDA ICHKI MONOLOGLARNING O'RNI

Hulkar Rajabova Farmonovna,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada inson psixologik dunyosining murakkabligi tashqi va ichki bog'liqlik bilan ham ochilishi xususida so'z yuritilib, qahramonning qalbida nima sodir bo'layotganini faqat tashqi bog'liqlik bilan emas, ichki bog'liqliklari bilan ham aniqlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, bu ikki bog'liqlik egizak tasavvur bo'lib, birisi ikkinchisida qahramonga xulosa chiqarishga, vaziyatni to'g'ri baholashga eng muhimi, xatolarni to'g'rilashga turtki bo'lsa, ikkinchisi uning harakterini ochib berishi tadqiqot obyekti qissalari orqali tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: qissa, qahramon, harakter, yurt, detal, asos, ijod, yozuvchi.

Abstract:

The article talks about how the complexity of the human psychological world can be revealed by external and internal connections, and analyzes how what is happening in the heart of the hero is determined not only by external connections, but also by internal connections. Also, these two connections are a twin imagination, one of which prompts the hero to draw conclusions, to correctly assess the situation, and most importantly, to correct mistakes, while the other reveals his character through the stories of the object of research. will be done.

Key words: story, hero, character, country, detail, basis, creativity, writer.

Аннотация:

В статье говорится о том, как сложность психологического мира человека может раскрываться внешними и внутренними связями, анализируется, как происходящее в душе героя определяется не только внешними, но и внутренними связями. Также эти две связи представляют собой двойственное воображение, одно из которых побуждает героя делать выводы, правильно оценивать ситуацию, а главное, исправлять ошибки, а другое раскрывает его характер через рассказы объекта исследования. быть сделано.

Ключевые слова: рассказ, герой, персонаж, страна, деталь, основа, творчество, писатель.

Har bir asar yozuvchi hayotining bir bo'lagi. Unda el qayg'usiga qorishgan armonlari va el orzusiga esh bo'lgan maqsadlari bor. Nomus hayot-mamot masala. Hayotda insonni or-nomusi,

sha'ni saqlab turadi. Bu anglanishlar qon misoli o'zlik tomirida oqadi. Har bir sinov, har bir jarayon bizni nomus bilan ro'baro' qiladi. Yosh umidli yozuvchi Xoliyor Safarovning "Nomus va hayot" Qashqadaryo kengliklarida hayot kechirayotgan yoshlar hayoti cho'pon yigit taqdiri misolida ochib bergan. Aslida bu hayot yozuvchiga tanish... Muallif ham bolaligi da adirlarda qo'y boqqanman, qissa qahramoni Eshpo'lat kabi qir etaklarida ko'kka qarab xayol surib yotgan, sevgan qizi haqida o'ylagan, keyin shaharga o'qishga kelgan... Qissadagi hayot esa umuman to'zonli. Universitetda o'qishni orzu qilgan yigit otasining qo'li yupqaligi sababli o'qiy olmaydi. Cho'ponlik qiladi. Qismati – qo'ylar, orzulari yaylov bo'lib qoladi. Ammo uning sevgani bor. Qizning otasi "ko'ngli o'zidan qolsin" deb imtihonga yuborgan, ammo uyda ro'zg'or va qishloqning ado bo'lmas tashvishlariga o'ralashib yotgan qiz o'qishga kirolmaydi. Uni endi turmushga berishlari kerak. Otasi "Cho'ponga qiz bermayman, masalan" degani bilan sovchilar bezorini chiqargach, oxiri rozi bo'ladi. Ammo tez orada fotihani buzadi va qizni Abdulla hojining avlodi, G'ulomboy fermerning o'g'liga beradi. Yigitning nomusi paymol bo'ladi, so'zi o'ladi. Asar ana shundan boshlanadi...

Xoliyor Safarovning "Nomus va hayot" qissasida bu ikki tashqi va ichki bog'liqlik o'rtasida tafovut kuchaytirilib, qahramonning xarakter xususiyatlari yanada kengroq ochib beriladi. Masalan, avvaliga o'qishga kirolmay cho'pon yigitning tugunini qaytargan va otasining tanlovi boy yigitni qayliq qilgan O'g'iloyning ertalab derazasiga yopishtirilib ketgan – yamyashil, gullayotgan daraxtda o'zi o'tirgan shoxni arralayotgan qiz tasviri yoki kechalari bilan tonggacha guyo deraza ortidan eshitilayotgandek sado berayotgan oshiq yigitning nay navosi kabi tashqi bog'liqliklar "Shu Akmalga rozilik berib xato qildimov...degan xulosa chiqarishiga turtki bo'lsa-da, O'g'iloy bu xulosalar bilan ruhiy keskinlikka boradi. Oqibatda unga xos ayyorlik, boylikka o'chlik, kaltafahmlik xarakterlari ochiladi. Muallif uchun qahramonning qalbida hech qanday sir yo'q - u haqida hamma narsani biladi, ichki jarayonlarni batafsil kuzata oladi, taassurotlar, fikrlar va tajribalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tushuntiradi. Bu tushuntirishlarini esa tashqi bog'liqliklar falsafiy ma'no anglatibgina qolmay, har bir qahramonning qismatidan ogohlantirayotgan o'sha suratlar bilan qissaning voqealar jarayonini zanjir kabi tizginga tizadi.

Taqdirini arralayotgan qiz surati allamahalgacha O'g'iloyning hayolot dunyosini vayron qilgan bir paytda otasi Murod qassobga do'konida – soqollari o'sib, yuzlari ajin bosib ketgan qariya devorda osilgan soatga qarab qo'l silkiyotgan surat tinchlik bermadi, hatto qassobxona devorida osilgan soatga ko'zi tushdiyu, yuragi qalqib ketdi. Ichki hayajon, titroq bilan "Soatga qarab qo'l silkiyotgan odam" uni ta'qib qilayotganidan vahimaga tushdi. Bu o'rinda yozuvchi qahramonning ichki holatining keskinligini kuchaytirish, qilgan aybidan keyingi suratni qissaga olib kiradi. Oddiy qog'ozga chizilgan bu suratda bir xaroba uy tasvirlangan bo'lib, uning eshik va derazalari loy bilan panjakash qilib suvab tashlangan, uyga kirish ham, chiqish ham yo'q. Aslida bu surat Murod qassobning ichki dunyosining andozasi desak

yanglishmaymiz. Zotan u birinchi marta suratni qo'lga olganda ham yuragi shig' etdi. Qizi suratni "Menimcha, manavi rasmda soatga qarab qo'l silkitayotgan odam umri o'tib ketayotganidan, vaqt orqaga qaytmasligidan o'kinayotgan, to'g'rilab bo'lmas xatolaridan afsuslanayotgan bo'lsa, eshik derazasi yo'q, demak u yerda odam yashamaydi. Odami bo'lmagan joyda boyo'g'li bo'ladi" degan izohidan Murod qassobning ko'ngliga g'ulgula tushadi. Uni bu tasvirlar yuragini ombur bilan qisgandek bo'ldi. Ammo uning fikri o'zgarmadi. Muallif qahramonning ichki ruhiyatiga tashqi ta'sir ko'rsatayotgan har qancha bog'likni olib kirsada, Murod qassobning harakteriga o'zgarish bo'lmadi. Qaytanga qizini o'sha suratdagi bir xurjun kitob ortilgan egasi yo'q eshakning dashtdagi yolgiz oyoq yo'ldan katta tirassaga qarab ketayotgan "kuyovi"ga berish neyati oshdi. "Suvi tortilgan ko'l va qirg'oqda qolib ketgan teshik qayiq tasviri"dan keyin Murad qassob yiqildi, yuragi huruj qildi. Bu o'rinda yozuvchi vaziyatning jiddiyligini yoki qahramonlarning ichki holatining keskinligini kuchaytiradigan, uning ichki dunyosining ba'zi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadigan maxsus suratlardan o'ziga xos badiiy vosita sifatida yanada ko'proq foydalanib, boshiga tushayotgan vaziyatlarga aslida sababchisi ham o'zi bo'lishiga vaqtida xatolarni anglab olishiga turtki bo'ladi.

Ma'lumki, psixologizm badiiy adabiyotning asosiy fazilatlaridan biri bo'lib, yozuvchiga o'z qahramonlarining ichki dunyosini chuqur ochib berish, ularning his-tuyg'ulari, fikr va kechinmalarini yetkazish imkonini beradi. Psixologizm yordamida muallif o'quvchida his-tuyg'u va empatiyani uyg'otadigan yorqin tasvirlarni yaratadi.

Shuningdek, yozuvchilar personajlarning ichki dunyosini va ularning hissiy holatini yetkazish uchun turli usullardan foydalanadilar. Masalan, qahramonlarning ichki monologlari, mulohazalari, dialoglari ularning xarakteri va fikrlarini ochib berish uchun ishlatiladi.

Xoliyor Safarovning "Nomus va hayot" qissasida psixologizm syujeti va kompozitsiyasiga ta'sir qilib, uni yanada chuqurroq, qiziqarli va real chiqishida rol o'ynaydi. Shundan qissada psixologizm yozuvchiga personajlarning ichki dunyosini o'rganishga, murakkab voqealar liniyalarini yaratishga va personajlarning hissiy holatini yetkazishga, qahramonlarni yaxshiroq tushunishga, ularga hamdard bo'lishga yordam beradi.

Ma'lumki, personaj nutqi monolog (personajlarning o'z-o'ziga yoki o'zgalarga qaratilgan ichki nutqi) va dialog (ikki yoki undan ortiq personajlar o'rtasidagi suhbat)dan iborat bo'lib, ularning ikkalasi ham obraz va xarakter yaratishning muhim vositalaridan sanaladi. Xususan, X.Safarov "Nomus va hayot" qissasida psixologizmning har ikki turidan o'rinli foydalangan. Yozuvchi personaj nutqini uning asarda tasvirlangan voqealardagi o'rniga, individual xarakter-xususiyatlariga qarab tavsiflab chiqdi. Asar qahramonining tabiatiga qarab, yozuvchi unung nutq tuzilishi, so'z boyligi va boshqa til xususiyatlarini ochdi. Ayniqsa qahramonining xarakterini tipiklashtirish va individuallashtirish maqsadida badiiy til leksikasi resurslari –

arxaizm, neologizm, professionalism, dialektizm, disfemizm kabi elementlardan ham foydalandi.

Bu o'rinda "Nomus va hayot" qissasida badiiy til leksikasi resurslaridan kelib chiqqan qarg'ish so'zlarini misol tariqasida berish o'rinlidir.

"Yigitning so'zi o'lguncha, ho'kizning bo'yni uzulsin", degan Meyli cho'pon iyini qisib, qayta-qayta kelavergach, har ikki gapining biriga "masalan" qo'shib gapiradigan Murod qassob lafzidan qaytadi. Yigitlik ori, nomusiga chidolmagan cho'pon yigitning onasi Zarbuvi xola qorong'i tunda baland qir ustida o'tirib, butun qalbi hasratga to'lib, ko'zyoshlari yuzuni yuvib, ko'kka boqdi.

"Ey karami keng Egam! Bir begunoh yigitni nomusga qo'ygan qizning ertasini O'zingga soldim! Xudojon, seni unutganlarning, seni o'rta qo'yib, sening pok nomingdan so'z aytib, keyin lafzini harom qiluvchilarning jazosini o'zing bergin!.. O'zing bergin!.. O'zing!.."

Qarg'ishlar – o'zbek folklorining mustaqil, qadimiy, an'anaviy janri bo'lib, insonga yomonlik, o'lim tilash motivlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. «Qarg'ish» atamasi qadimgi turk tilida «Qirqar» fe'li o'zagidan yasalgan. M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida shu so'z bilan o'zakdosh «Qirg'a» iborasining g'azab ma'nosida qo'llanilganiga izoh berilgan.

«Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati»da esa «Qarg'a» fe'lining «la`natlamoq», «haqoratlamok» ma'nolarida, «Qirg'a» fe'lining esa «koyimoq, so'kmoq, urishmoq» ma'nolarida qo'llanilganligi aytilgan. Hozirgi tilimizda «Qir» fe'li uchraydi va u «yo'qot», «yo'q qilib yubor» degan ma'nolarni ifoda etadi. Shuningdek, u yana lug'at boyligimizda mavjud «Qirg'in» so'zi bilan ham o'zakdosh hisoblanadi.

Qarg'ish barcha xalqlar folklorida mavjud. Shu bois turli xalqlar og'zaki ijodida uchraydigan qarg'ishlar mazmuni, shakli va poetik tabiatiga ko'ra bir-biriga yaqin va hamohangdir. Chunki qarg'ishlarning kelib chiqish asoslari bir ildizga – so'z magiyasi bilan bog'liq tasavvur – tushunchalarga borib taqaladi.

Qarg'ishlar hajman qisqa, ixcham, mazmunan lo'nda bo'ladi. Ularning o'ziga xos kelib chiqish tarixi, poetikasi, badiiy shakli, ifoda usuli mavjud. Qarg'ishlarning kelib chiqishiga qadimgi insonlarning so'zning sehr-jodu qudratidan qo'rqish hissi etarli asos bo'lgan. Qarg'ishlarning aytilishiga biron-bir ijtimoiy voqelik sabab bo'ladi. Ular hech qachon besabab aytilmaydi. Aytaylik, qarg'ishlar birovdan qattiq ranjiganda, g'azablanganda, moddiy yoki ma'naviy ozor ko'rganda-jabrdiriyda tomonidan jabr yetkazuvchilarga qarata aytiladi.

Bundan ko'rinadiki, qarg'ishlar uni yo'llovchi subyektning yoshiga, turmush tajribasiga, ruhiy holati va maqsadiga, oiladagi mavqeiga qarab har xil bo'ladi: birinchisi – obyektga o'tadigan(kishini tutadigan) bo'lsa, ikkinchisi – obyektga o'tmaydigan (tutmaydigan) qarg'ishlardir. Obyektga o'tadigan qarg'ishlarga keksalar va otalar, boquvchilar, musofir va g'arib kishilar qarg'ishlari kiradi. Onalarning hamda bo'lar-bo'lmasga janjal ko'taradigan og'zi shaloq ayollarning qarg'ishi esa obyektga o'tmaydigan qarg'ishlar sirasiga mansubdir.

Qarg'ishlar kishining yoshiga qarab aytiladi. Masalan, yoshlar gunoh qilganda, ularga karata: «Yigit o'lgur», «Qiz o'lgur», «Yigitboshing (yoki yosh boshing) go'rda chirisin», «Juvonimarg bo'lgur», «Juvon o'lgur», «Qirchiningni kiyay», «Qora soching taxtada taralsin» kabi qarg'ishlar aytiladi.

Qarg'ishlarning kattagina qismi insonga o'lim tilash uchun aytilishi jihatidan ajralib turadi. Bu xil qarg'ishlarda o'lim tilash kishiga to'ppadan– to'g'ri yoki murdani dafn etish uchun qo'llaniladigan narsalarni aytish orqali bayon etiladi. O'lim tilagini ifoda etuvchi qarg'ishlar og'ir qarg'ish hisoblanadi. Kishilar imkon qadar ulardan qochishga intiladi.

Qissada qarg'ishlardan qahramon harakteri, ruhiyatini ochib berish uchun keng foydalanilgan. Masalan, o'g'lining ori, obro'sini to'kkan qizni yigitning onasi qarg'aydi: “Ey, karami keng Egam! Bir begunoh yigitni nomusga qo'ygan qizning ertasini O'zingga soldim! Xudojon, seni unutganlarning, seni o'rta qo'yib, sening pok nomingdan so'z aytib, keyin lafzini harom qiluvchilarning jazosini o'zing bergin!.. O'zing bergin!.. O'zing!”

Ushbu parchadagi onaning O'g'iloyga aytgan qarg'ishidan personajlarning ijtimoy kelib chiqishi oydinlashadi. Yigitning cho'ponlikdan ro'zg'or aravasini tortishiyu, qizning boylik, mansab, mavqe ortidan yaxshi yashash sharoitiga qiziqishi, bunga hatto sevgisini ham qurbon qilishi oqibatida uning ruhiyati ham ochib beriladi.

Ularning bir yigitning sha'ni, bir onaning ohi urmasa, rozi emasman!

- Xudoyim, - dedi u ko'kka boqib, - bizni bandam desang, o'zing yuzimizni yorug' qil! Nomusga qolgan o'g'limning qalbini sindirma! Uning yuragidagi olovni o'chirma! Benomuslarning jazisini o'zing ber!

Qissa sof realizm. Ammo undagi suratlar modernga xos. Nafsiga qul otaning xatolarini va arosatdagi qizning iztiroblarini ko'rsatish, ularni vijdon azobida qovurish uchun shu usulni tanlaganman. O'zi o'tirgan shoxni arralayotgan qiz, soatga qarab qo'l silkitayotgan qariya, eshik va derazalari suvab tashlangan xaroba uy, tik shoxi kesilib, yon butoqlari o'sib turgan daraxt, kitob ortilgan eshak, suvi tortilib ketgan ko'l va qirg'oqda qolgan qayiq, yarim odam, yarim tulki ko'rinishidagi kelinchak... Bularning barchasi Allohning muhri bo'lgan fotihani buzgan otani nomusga qo'yadi... Inchinun, o'quvchi ham o'yg'a toladi. O'zini o'sha odamlarning o'rniga qo'yib ko'radi...

Yozuvchi mahoratining yana bir jihati qarg'ishlarga emas, balki badiiy psixologizmning ichki monolog turidan ham keng foydalanadi.

Ichki monolog - bu adabiy qahramonning fikrlari va kechinmalarini to'g'ridan-to'g'ri takrorlashdan iborat bo'lgan psixologizmning asosiy usuli. U "ma'lum bir badiiy konventsiyaga asoslanadi, bu aslida ichki bo'lib qoladigan aqliy harakatlar adabiyotda "tashqariga chiqarilishi" va muallifning vositachiligi tufayli, go'yo "eshitib qo'ygan", ular tashqi kuzatuvchi (o'quvchi) uchun ochiq bo'ladi. Ichki monolog ichki nutqqa taqlid qilishning alohida holati bo'lib, uning xususiyatlarini mantiqiy fikrlashning intuitiv va

ekstramantiqiy fikrlash bilan uyg'unligi, fikrlarning past baholanishi, parchalar va pauzalar, tushunchalarning asossiz aloqalari, kontseptual bilan parallel ravishda mavjud bo'lgan majoziy fikrlash, o'ylash yoki hatto uni o'zgartirishini aks ettiradi:

Ikkita tushuncha mavjud: "ichki nutq" va "ichki monolog". Ichki nutq ko'proq psixologik tushunchadir, u adabiyotshunoslikda juda kam qo'llaniladi. Ichki nutq - bu qisman tartibga solingan bo'lsa ham, shunchaki odamning fikrlari va ichki monolog - bu xarakterning o'ziga murojaatidir. Aslida, odam ichki monologlarni kamdan-kam talaffuz qiladi, ammo adabiyotda bu ko'pincha sodir bo'ladi.

Ichki monologning vazifalari

Axborotni taqdim etishning bu shakli badiiy matnda juda foydali, chunki u turli funktsiyalarni bajaradi.

Qahramonning fikr va his-tuyg'ulari haqida o'quvchiga bilvosita emas, balki muallifning hikoyasi orqali bevosita xabar beradi.

Qahramonning xarakterini ochib beradi.

U o'quvchilarga, masalan, qahramonning ba'zi sirlari, u yashirgan his-tuyg'ulari, boshqa qahramonlar bilan munosabatlari haqida bila olmagan ma'lumotlarni yetkazadi.

Qissada berilgan qo'yidagi monologlarda buni yaqqo ko'rish mumkin.

- *Bu qanday ko'rgulik? -edi G'ayrat aka o'ziga-o'zi. Odam ota-onasidan ayrilsa ko'nikadi. O'lim haq deydi. Do'stu yoridan ayrilsa chidaydi. Mendan biror ayb o'tgandir-da, deydi. Odam oilasidan ayrilsa-da ko'nikadi. Bir-birimizga to'g'ri kelmadik, deydi. Farzandidan ayrilsa, chidaydi, sabr qiladi. Umri qisqa ekan peshonamizga sig'madi, deydi. Ammo eldan ayrilsa, yomon ekan. Yaxshi-yomon kuningda yoningda bo'lmasa, yomon ekan. Bundan ortiq qabohat, bundan ortiq haqorat yo'q ekan!. Ah pochcha-ya... Ahmoq pochcha-ya...*

Yuqoridagi ichki monologda qahramonning fe'l-atvori keyingi harakatlariga ta'sir qiladi. Ichki monologlar qahramon nimani anglashini ko'rsatadi.

- *Oydin opa nazarida, ular kecha to'y qilib, qizini uzatishmadi, balki elga sharmandalik dasturxonini yozishdi, orsizligini namoyon etishdi. U eriga kechagi to'y haqida hammasini so'zlab bermoqchi, qanchalar katta xato qilishganini, odamlarning ularga munosabati to'y kuni oshkor bo'lib qolganini aytmoqchi edi, bo'lmadi.*

Parchada qahramonning ichki monologi fikrlari tabiiy berilgan. Ichki monolog orqali muallif qahramonning sodir bo'layotgan voqealarga munosabatini ko'rsatgan ayniqsa, dialogni susaytirib, qahramonning ichki dunyosini yoki fikrlash poezdini ko'rsatgan. Asarda o'quvchi qahramonlar bilan bog'lanishi uchun, ularning ichki dunyosini ko'tarilgan. Bu ichki monologlar orqali amalga oshirilgan. Yozuvchi qahramonlar aynan nima haqida o'ylashlarini va ular atrofidagi dunyoni qanday qabul qilishlarini tasvirlagan.

-G‘ulomboy esa boshini egganicha lab tishlab o‘tirar, bu ishlarning barchasiga o‘zini aybdor sanab, bir begunoh yigitni nomusga qo‘yib, uning baxtiga chang solib xato qilganini, bu ishlarning barchasi cho‘pon yigit va uning onasining ohlari evaziga bo‘layapti, xudoyim mening jazoimni beryapti, deb endi otasiga ham, ayoliga ham qarashga yuzi bo‘lmay, hiqillab o‘tirardi.

Psixologiyada ichki monolog fikrlash shakllaridan biri, shaxsning o‘zi bilan muloqot qilish jarayonidir. Shunday ekan muallif ham qissada bu ichki ovozlari bilan insonni tanqid qilgan, maslahat bergan, aql-idrokka chaqirgan.

Ma‘lumki, tafakkur, odatda, ichki nutq, goh ichki monolog, goh ichki dialog shaklida bo‘ladi. Bu qissada muallif ichki monologlar orqali qahramonning o‘z fikrlarini ifodalashi, bu bilan kitobxonning uning ichki fikrlarini his qilishiga yordam bergan. Qissada shuningdek, ichki nutqdagi aqliy qiyinchiliklar, fikrlash muammolari darhol ichki monologlarga yaqinlashtirilgan.

- Yo, Alloh! – hoji bobo titrab ketdi. Lablarini tishlab, bosh chayqadi. – Bu ishlar qaysi gunohimiz uchun-a ?

Parchada ko‘rinadiki hoji boboning titrab, lablarini tishlab, bosh chayqashi ichki monologning yanada rivojlanishiga, pichirlash va hatto baland ovoqli nutqqa aylanib, shaxsga fikrlash obyektlarini aniqroq tahlil qilish va aqliy faoliyatni boshqarish imkonini ham bergan. Shuningdek, qahramonning his-tuyg‘ulari yoki jismoniy holati ochib berilgan. Bu yozuvchining uzoq vaqt chekinmasdan, retrospektivni, ya'ni qahramonning xotiralari orqali o‘quvchini ma‘lum bir voqeaning foni bilan tanishtirishga imkon bergan.

“G‘ulomboy esa karaxt bo‘lib qolgan, goh uy oldida dod solib yig‘laydi, goh “Endi nima qilaman, ota? Deya otasini quchoqlab oladi. Uyga kirib, yonma-yon qo‘yilgan qo‘sh mayyit qarshisiga o‘tiradi-da tizzalariga mushtlab yig‘laydi. “Bu azoblar qaysi gunohim uchun, xudojon?” deya faryod chekadi. Uyga ham hovliga ham sig‘may yurgan ayolini ko‘rganda o‘zini yanada aybdor, yanada gunohkor sanaydi, guyoki bu ishlarning hammasiga o‘zini aybdor chog‘laydi.”

Hamma narsani biluvchi muallif o‘zi nafaqat his-tuyg‘ularni nomlaydi, balki ularni sharhlaydi, ularni bilvosita nutq shaklida hikoya qildi, psixologik tafsilotlar, portretlar, manzaralar va musiqalardan foydalangan.

Atrofni zulmat qoplagan, derazalardan va darvoza tepasiga yoqilgan chiroqlardan tushayotgan yorug‘likni aytmasa, borliq er-xotinning qalbidek qop-qorong‘i edi... Murod qassob yerga cho‘kkalab o‘tirdi, yelkasini devorga tirab, o‘ksinib-o‘ksinib yig‘ladi. Hammasiga o‘zini aybdor sanadi. Masalan, shu fotihasini qaytarmaganimda cho‘ponga tegib ketardi. Mayli, boy bo‘lmas, mayli o‘rtahol yashar, lekin tirik yurardi, orzu-havas ko‘rardi. Bu nima degan gap? Endi men nima degan odam bo‘ldim, masalan? Otasini o‘ldirganni padarkush deyishadi, onasini o‘ldirganni modarkush deyishadi. O‘zini o‘zi o‘ldirganni

xudkush deydi. O‘z bolasini o‘ldirganni nima deydi? A, nima deydi, masalan? Bachakushmi, bolakushmi?

Men ahmoq o‘z qizimni o‘zim o‘ldirdim. Uni o‘zim o‘t ichiga tashladim. Hammasiga o‘zim aybdorman, o‘zim! To‘yga birov kelmagandi, endi o‘ligimga ham birov kelmasa kerak. Nima degan odam bo‘ldim-a, nima degan odam bo‘ldim?!

-Qaysi gunohim uchun bunday baloga yo‘liqdim-a, Xudojon? – eriga kuch bermay o‘kirib yubordi u. Bundan sharmandali o‘lim bormi? Odam ham quturib, o‘z boshiga yetadimi?..

“Bir pok vijdonli cho‘pon yigitni kuydirgan, bir oilani hasratga qo‘ygan, nomusga qolishiga sababchi, ikki o‘rtada talosh bo‘lib, eski qishloqqa yangi odat kiritgan va oqibatda o‘z boshiga yetgan O‘g‘iloy endi yo‘q. U ota –onasining qarori va falokat qurboni bo‘ldi...

Yozuvchi qahramonlarni tasvirlashning "tashqi" shakli, "tashqaridan" yoki "bilvosita psixologizm" - bu nutq, yuz ifodalari, imo-ishoralar, harakatlar va psixologiyaning tashqi namoyon bo‘lishining boshqa belgilariga tavsif bergan.

Belgilarni "ichkaridan" tasvirlash yoki psixologik tasvirning bevosita shakli o‘z-o‘zini ochish orqali xarakterning ongi va ongsizligidagi fikr va his-tuyg‘ulari ochilgan.

-Yo xudojon, bu qanday sinovki, dardimni o‘z erimga aytolmasam-a? Allohim o‘zing sabr bergin, o‘zing bir yo‘l ko‘rsatgin...

Rus adabiyotshunosi A.V. Karelskiyning belgilarni ichkaridan tasvirlashni qo‘yidagicha tasniflariga e‘tiborni qaratish lozim:

1) hikoya qiluvchining diqqatni qahramonning ichki dunyosidan tashqi fonga to‘satdan, namoyishkorona o‘zgartirishi (ruhning kulminatsion holatlarini tashqi harakatlar va faktlarning tavsifi bilan almashtirish texnikasi);

Guyoki elektr simlari qo‘shilib qolgandek bu gapni eshitgan Oydin opaning ich-ichidan armonu hasratlar tutashib, nimadir chirsillab ketgandek bo‘ldi, ammo hech narsa deya olmadi, faqat beholgina bo‘lib, qizining boshini ko‘ksiga bosdi.

2) tafsilotlarni o‘ynash (bu erda tahlil o‘tish holatlariga, yarim ongli impulslarga qaratilgan);

3) nutq xususiyatlarining maxsus shakllari:

- qahramonning nutqi uning fikrlari va his-tuyg‘ulariga teng emas, chunki ular ko‘pincha aql tomonidan boshqarilmaydi;

– muloqot tuzilishi ko‘p yo‘nalishli impuls va motivlarni aks ettiradi;

- nutq jarayonida fikr shakllanadi, uning yordamida xarakter o‘zini sinab ko‘radi va suhbatdoshni tekshiradi;

- nutqda sezilarli undovlar, pauzalar, sukunatlar mavjud - pulsatsiyalanuvchi his-tuyg‘ularni subtekst bilan aniqlash.

Ichki monologdan foydalanish chastotasining umumiy tahlili uni qahramonning hissiy holatini yetkazishning eng tez-tez ishlatiladigan vositasi sifatida to'g'ridan-to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Ichki monologning o'zi qahramonning ichki kechinmalarini yetkazishning asosiy uslubiy vositasi bo'lib tuyuladi va nafaqat his-tuyg'ularni balki fikrlash jarayonining dinamikasini kuzatishga yordam beradi.

Ichki monolog fikrlarga taqlid qilishdir, shuning uchun u shunday ovoz berishi kerakki, bular muallifning tavsifi emas, balki qahramonning mulohazalari va kechinmalari ekanligi ayon bo'lishi kerak.

Birinchi shaxs hikoyasida muallif va qahramon o'rtasidagi chiziqli ichki monolog u yoqda tursin, tashqi hodisalarni tasvirlashda ham ko'pincha yo'qoladi. Boshqa tomondan, haqiqatda, odam juda kamdan-kam hollarda ichki monologlarni talaffuz qiladi, ya'ni u voqealarning mohiyatini o'ziga tushuntiradi. Ammo ko'pincha bizning boshimizda hukmronlik qiladigan tarqoq fikrlar va tajribalarning haqiqiy tartibsizliklarini ham o'quvchiga tashlab bo'lmaydi. Aniqrog'i, ba'zilar o'z his-tuyg'ulariga turli gap-so'zlar va izohlar bilan parcha-parcha so'z va qisqa iboralarni aralashtirib yuborishga harakat qiladilar.

Atrofni zulmat qoplagan, derazalardan va darvoza tepasiga yoqilgan chiroqlardan tushayotgan yorug'likni aytmasa, borliq er-xotinning qalbidek qop-qorong'i edi... Murod qassob yerga cho'kkalab o'tirdi, yelkasini devorga tirab, o'ksinib-o'ksinib yig'ladi. Hammasiga o'zini aybdor sanadi.

Yozuvchining hayoliy dunyosi uning asarlari tilida: fojiali shiddatli, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarga to'la, idealning uzluksiz izlanishlari bilan ichkaridan yaqqol namoyon bo'lgan. Uning badiiy tili odat me'yorlarini dadil o'zgartirish asosida qurilgan va yangi turdagi og'zaki estetik uyg'unlik yaratilgan.

Xoliyor Safarovning qissada hikoya qilish uslubining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Murod qassob "masalan" so'zini tez-tez takrorlaydi. Bu esa muallifning qahramoni nutq texnikasini faqat tizimli birlikda, ularning badiiy funksiyasini hisobga olgan holda ifodalay olish mahoratini ochib beradi.

Dastlab bilvosita nutqning konstruktsiyasi sifatida yaratilgan iboralar keyinchalik to'g'ridan-to'g'ri nutq so'zlariga aylanadi va boshqa birovning nutqini takrorlaydi.

Ichki monolog - qahramonning o'ziga qaratilgan nutqi. U nafaqat kengaytirilgan monolog shaklida, balki sharhlar va mulohazalar, qaror qabul qilishda:

"Masalan, shu fotihasini qaytarmaganimda cho'ponga tegib ketardi. Mayli, boy bo'lmas, mayli o'rtahol yashar, lekin tirik yurardi, orzu-havas ko'rardi."

savol-javob:

"Bu nima degan gap? Endi men nima degan odam bo'ldim, masalan? Otasini o'ldirganni padarkush deyishadi, onasini o'ldirganni modarkush deyishadi. O'zini o'zi o'ldirganni

xudkush deydi. O‘z bolasini o‘ldirganni nima deydi? A, nima deydi, masalan? Bachakushmi, bolakushmi?”

- umumiy xarakterdagi mulohazalar, masalan, hayotning mazmuni, borliqning mohiyati, turli hayotiy muammolar va boshqalar:

- Men ahmoq o‘z qizimni o‘zim o‘ldirdim. Uni o‘zim o‘t ichiga tashladim. Hammasiga o‘zim aybdorman, o‘zim!

- xotiralar shaklida ham tartibga keltirilgan. .

To‘yga biron kelmagandi, endi o‘ligimga ham biron kelmasa kerak. Nima degan odam bo‘ldim-a, nima degan odam bo‘ldim?!

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Safarov.H. Qanotsiz qushlar –Toshkent: O‘zbekiston, 2014. -344 b.
2. Safarov, Xoliyor. Nomus va hayot: qissa va hikoyalar-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. -152 b.
3. Qo‘shjonov M. Hayot va mahorat. –T., O‘zadabiy nashr, 1962. 201 bet.
4. Бобоев Тухта. Адабиётшунослик асослари. Олий Ўқув юртларининг филология (Ўзбек тили ва адабиёти) факультетлари талабалари (бакалаврият босқичи) учун дарслик. Масъул муҳаррир: С. Мамажонов. 2-нашр, қайта ишланган ва тўлдирилган. — Т.: “ Ўзбекистон” , 2001. — 560 б.
5. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского / М.М. Бахтин. М.: Сов. Россия, 1979. 318 с.
6. Виноградов В.В. О языке Толстого (50-60-е гг.) // Литературное наследство. 1939. Т.35–36. С.117–220.
7. Виноградов В.В. О языке художественной прозы: избранные труды / В.В. Виноградов. М: Наука, 1980. 360 с.
8. Гроссман Л. П. Достоевский / Л. П. Гроссман. М.: Молодая гвардия, 1965. 604 с.
9. Заводовская С.Ю. О внутреннем монологе. Стилистические проблемы французской литературы. Л.: Худож. лит., 1974. 246 с.
- 10.Иванчикова Е. А. Синтаксис художественной прозы Достоевского / Е. А. Иванчикова. М.: Наука, 1979. 287 с.
- 11.Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Караулов. М. Наука, 1987. 261 с.
- 12.Макеева М.Н., Никулина Н.И. Герменевтический аспект внутреннего монолога // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2013. № 9 (27). Ч. 1. С. 102–107.
- 13.Свительский В.А. Авторская оценка и роль композиционных решений в прозе Ф.М. Достоевского // Изв. Воронеж. пед. ин-та. 1976. Т. 161. С.15–26.

14. Туниманов В. А. Приемы повествования в «Кроткой» Ф. М. Достоевского // Вестн. Ленингр. ун-та. 1965. № 2. С. 106–115.

15. <https://academy.petsu.ru/journal/article.php?id=3002>